

O‘ZBEK KOREYS ADABIY ALOQALARI VA TARJIMA

To‘raqulova D

SamDChTI tayanch doktoranti

Email:dirlabotoraqulova@gmail.com

Tel:(90) 966 88 91

Annotatsiya. Adabiyotlar o‘rtasidagi aloqalar, albatta, tegishli tillarni bilishga asoslangan bo‘lsa, ayniqsa samarali bo‘ladi. O‘zga xalqlar hayotida asarlar yaratish har bir adabiyotda muayyan an’ana va o‘ziga xos tajribaga ega xodisa. Ushbu maqolada Koreya va O‘zbekiston Respublikalari o‘rtasida o‘zaro madaniy aloqalar xususan adabiy aloqalar haqida so‘z boradi. Koreys tildan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan koreys tiliga qilingan tarjimalardan misollar keltirildi.

Kalit so‘zlar: adabiy aloqa, adabiyot, tarjima, madaniyat, madaniy aloqa.

Turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro ta’siri va bir birini boyitishida matbuot, tarjimonlarning roli ulkan bo‘lganidek, adabiy aloqalar jarayonida tarjimalar ham katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlarning o‘zaro aloqalari, eng avvalo, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi madaniy aloqalar O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng yangicha mazmun va yangicha yo‘nalish kasb etdi. Har ikki xalq o‘rtasidagi ana shu ma’naviy yaqinlik Janubiy Koreya va O‘zbekiston Respublikalarini iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, adabiy jihatdan yaqinlashtirdi va ular o‘rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirdi mazmunan boyitdi.

“O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jahoning turli mamlakatlari bilan har tomonlama iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mamlakatimizning, ayniqsa, Koreya Respublikasi bilan munosabatlari har tomonlama faol rivojlanmoqda, ular yangi infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, madaniy tadbirlarni o‘tkazish kabi muhim sohalar rivojida o‘zaro hamkorlik qilmoqdalar. Ayni vaqtda, O‘zbekiston ilmiy jamoatchiligining koreys xalqi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradigan Janubiy Koreya tarixi, madaniyati, adabiyotshunosligiga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda”.

O‘zga xalqlar hayotida asarlar yaratish har bir adabiyotda muayyan an’ana va o‘ziga xos tajribaga ega xodisa. Bu jarayon adabiyotlar taraqqiyotining turli bosqichlarida, xilma-xil shakllarida, turli badiiy saviyada davom etib kelmoqda. Shunday davrlar bo‘lganki, o‘zga millat kishilarining badiiy obrazlarini adabiy jarayonning masalalaridan biri qilib qo‘ylgan va unga davlat ahamiyatiga molik muammo sifatida qaralgan. Natijada respublikalarda o‘tkazilgan adabiyot va san’at kunlari, o‘zga millat shoir va yozuvchilarining yubileylariga, siyosiy, adabiy-madaniy tadbirlarga bag‘ishlanib har-xil janrlarda ko‘p asarlar yozilgan. Lekin ularning hammasi ham bir xil badiiy saviyada bo‘lmagan. Sayozlari adabiy

jarayonda hech qanday iz qoldirmasdan, faqat o‘sha tadbir uchun “xizmat qilib”, so‘ng unitilib ketilgan.

O‘zga millatlar hayoti to‘g‘risida badiiy asarlar yozish, ularning poetik obrazlarini yaratish ancha murakkab jarayon. Murakkabligi shundaki, bu mavzuga qo‘l urgan ijodkor tasvir obyektini yaxshi bilishi lozim. Shunday bo‘lishi kerakki, boshqa millat haqida yozilgan asarda muallifning mavzu materialini yuzaki bilishi sezilmashin, o‘quvchida o‘z xalqining ijodkori tomonidan yozilganidek taassurot qoldirsin. Koreys adabiyoti bir necha asrlardan buyon hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Shu yo‘sinda ta’kidlab o‘tish joizki O‘zbekiston Respublikasining mustaqilikka erishishi, xalqaro ijtimoy aloqalarining globallashuvi, respublikamizning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi uchun imkoniyat yaratadi. Koreya Respublikasi O‘zbekiston bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan dastlabki davlatlardan hamda mamlakatimizning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-yanvarda shonli sana – O‘zbekiston bilan Koreya Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlari o‘rnatilganligining 25 yilligi munosabati bilan Koreya Respublikasi raxbariyatini tabriklar ekan, ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro ishonch, ochiqlik va hamfikrlik qaror topganini, bu turli sohalarda, shu jumladan madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilayotganini katta mammuniyat bilan ta’kidladi[6]. O‘zbekistonda koreys tili, madaniyati, adabiyoti, tarixiga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga o‘sib borayotganini ham aynan shu bilan izohlash mumkin. “O‘zbekiston madaniyati singari, Koreya madaniyati ham umuminsoniy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo‘shtirish. Uning an’anaviy, ma’naviy qadriyatlari insonni komolot cho‘qqilariga ko‘tarish, uni dunyoning rang-barangligini anglab yetayotgan va shu asosda o‘z dunyoqarashi va borliq haqidagi tasavvurlarini takomillashtirayotgan shaxs sifatida kamol toptirish uchun imkoniyat yaratadi. Koreya madaniyati o‘z ildizlari bilan uzoq moziyga borib taqaladi, bu esa o‘z-o‘zidan bitmas tiganmas bu madaniy merosni o‘rganish, uning mohiyatini yoritib berish vazifasini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, koreys madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan adabiyot, xususan, o‘rta asr mumtoz adabiyoti alohida ahamiyat kasb etadi[1]. “O‘zbekiston va Koreya respublikalari o‘rtasida har tomonlama hamkorlikning chuqurlashuvida madaniy aloqalar muhim rol o‘ynaydi, zero, mashhur olim N.Berdyayev ta’kidlaganidek, “jamiyat hayotida ma’naviy ustunlik madaniyat qo‘lidadir... Jamoatchilikning qimmati va sifati madaniyat sifatining yuksaklik darajasi bilan o‘lchanadi”. Adabiyot, madaniyatning mohiyatini belgilaydigan asos hisoblanadi. “Adabiyot bu so‘z san’ati” deya bejizga ta’rif

berilmagan. Insoniyatning estetik qimmatini, uning ichki dunyosini, dunyoqarashi va olamga munosabatini aks ettiradigan san’atdir.

O‘zbekiston va Koreya respublikalari o‘rtasidagi o‘zaro madaniy aloqalar kundan kunga o‘sib bormoqda. Koreya tarixi, adabiyotiga tegishli bo‘lgan darsliklar oliy ta’lim muasassalari tomonidan talaba yoshlar e’tiboriga havola etilayotgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Saydazimova U. va Ismatullayeva D.lar tomonidan tuzilgan darslik “Koreys adabiyoti jahon adaboyoti kontekstida” deb nomlanadi. Ushbu darslik koreys adabiyoti tarixi hamda koreys adabiyotiga xitoy, yapon, rus, hind, va Yevropa adabiyotlarining ta’siri haqida so‘z boradi. Ushbu darslikda “XX asr boshida Yaponiya tomonidan Koreyaning anneksiya qilinishi yarimorolda kapitalistik tuzum o‘matilishiga olib keldi. Bu XIX asr G‘arbda kuzatilgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning amalda Koreyada ham yuzaga kelishini anglatadi. XX asr boshi koreys yozuvchi va shoirlarining mazkur davr koreys adabiyotida yuz bergen ulkan o‘zgarishlar haqida hukm chiqarish imkonini beradi. Bu o‘zgarishlar eng avvalo asr boshida Koreyaning jadal sur’atlarda rivojlanishi bilan belgilanadi” deb ta’kidlanadi. Aytaylik, koreys xalqining urf-odatlari, milliy o‘ziga xosliklarini yuksak badiiy saviyada tasvirlab bergen ijod namunalari o‘zbek adabiyotida uchratish mumkin. Bunga misol qilib quyidagi kitoblarni keltirishimiz mumkin: U. Saydazimova tomonidan tuzilgan “Koreys adabiyoti tarixi” nomli kitobda kitobxonga koreys ananaviy adabiyotining rivojlanish tarixi, ilk yodgorliklari, XIX asrgacha bo‘lgan nasr va nazmning namunalari taqdim etiladi. Shu bilan birga koreys adabiyoti rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatadigan davr bo‘yicha asosiy xususiyatlarini ochib berishga, ulardan eng yorqinlarini ko‘rsatib berishga harakat qilingan. U yoki bu adabiy davr manzarasini tavsiflab bergen yetakchi yozuvchi va shoirlarning ijodi hamda ularning mashhur asarlari ko‘rsatilib o‘tilgan. Ushbu kitobda koreys adabiyoti tarixining asosiy xususiyatlari, undagi inson va tabiat tasvirlaridagi o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda, o‘rta asr koreys adabiyoti tarixini besh davrga bo‘lib ko‘rsatilgan. Kitobxon uchun, Ilk adabiyot. Uch podsholik va sillar davri (X asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr), Koryo adabiyoti, Choson (Li) sulolasi adabiyoti (XV-XIX asrlar), Koreys tilidagi nasriy janrlarning xususiyatlari (XVII-XIX asrlar) kabi mavzularda Koreya adabiyotini davrlashtirgan holda keng ko‘lamda yoritib berilgan. “Zamonaviy koreys she’riyati antologiyasi” deb nomlangan kitobda, zamonaviy koreys she’riyatini davrlashtirilgan holda havola qilingan. Ushbu kitob Saydazimova U, Choi So Yong, Xvan L, Shakirova N, Kim O, Kim Ye, Kim T. lar tomonidan tuzilgan. Ushbu kitobdan XIX asr oxirlari va XX asrning 1950-yillargacha bo‘lgan davrdagi koreys she’riyatining eng asosiy janrlarga oid she’rlar tarjimasi o‘rin olgan. Kitob uch qismdan iborat bo‘lib birinchi qismida XX asr 1910-yillarda, ikkinchi qismiga XX asrning 1920-yillarida, uchinchi

qismiga XX asrning 1930-1950-yillarigacha yaratilgan she’riy asarlar kiritilgan. Ushbu kitobda koreys shoirlaridan Xvan Xyon, Che Nam Son, Pak Yong Xi, Lim Xva, Kim Sovol, Xan Yon Un va h.k koreys shoirlarining she’rlaridan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, namunalar keltirilgan. “Klassik koreys she’riyati antologiyasi” Saydazimova U, Choi So Yong, Xvan L, Shakirova N, Kim O, Kim Ye lar tomonidan tuzib chiqilgan bo‘lib kitobda koreys klassik she’riyatini to‘rt qismga bo‘lib o‘rganilganligining guvohi bo‘lamiz. Birinchi qismga ilk o‘rta asrda yaratilgan xyanga she’riy asarlar, ikkinchi qismga “Koryo qo‘sishqlari” (XIII asrdan keyingi davr), uchinchi qismga sijo she’rlari (XV-XVIII asrlar), to‘rtinchi qismga esa kasa va chapka she’riy asarlari kiritilgan bo‘lib, ushbu kitob, mantiqiy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan beshta bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib bular quyidagilardir: Qadimgi qo‘sishqlar: Xyanga va Koryo kayo, Koryo qo‘sishqlari, Qisqa qo‘sishqlar: Sijo, Yangi davr qo‘sishqlari: Chan sijo, Ohangli satrlar, Kasa va Chapka. Kitobda keltirilgan she’riy namunalarning salmoqli qismini buddaviylik va konfutsiychilik qarashlari bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, Volmyonning “Marhuma opam haqida” yoki bo‘lmasam Him Yonning “Ko‘r bolaning iltijosi”, Kyunyoning “Budda ta’limotlariga doimo amal qilaman”, “Qonun g‘ildiragi orqaga aylansin,-deya iltijo qilaman” va boshqa she’riy parchalarda buddizm g‘oyalarining aks etganligining guvohi bo‘lamiz. “Ularda dunyoni uqubat va baxtsizliklardan xalos etuvchi Buddanining ulug‘ligi madh etilgan”. Kitobda keltirilgan she’riy parchalarda biz “tabiat va ishq muhabbat mavzusi koreys she’riyatining bir-biri bilan chamcharchas bog‘liq mavzulari” ekanligining guvohi bo‘lamiz. “Koreys she’riyatida tabiat o‘ziga xos etnografik xususiyatlar, ko‘p qirrali ananaviy obrazlar – tog‘, archa, kedr, bambuk, turna, xrizantema va shunga o‘xhash narsalar, yilning turli fasllari – xazonrezgi kuz, muzaffar ilk bahor, kunning bo‘laklari – erta tong, oqshom” kabi mativlar tashkil etadi. “Zamonaviy koreys nasri antologiyasi” deb nomlangan to‘plamga XIX- asr oxiri- XX asrning 1950-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan yangi koreys nasrining eng sara namunalarini kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Sharq yulduzi jurnalining 1950 yilda chop etilgan 9 sonida ham koreys shoirlaridan Kim Dyo Gyu qalamiga mansub “Stalinni olqishlayman”, Pak Pxan Yan qalamiga mansub “Pxenyan Madhiyasi”, Li Vob U qalamiga mansub “Tinchlik tili”, Byak In Dyun qalamiga mansub “Yer islohoti kuni”, Kim San O ga tegishli “Nafrat alangasi” deb nomlangan she’rlar Shuxrat tomonidan rus tili vositachiligidagi o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Badiiy tarjima adabiyotlarning o‘zaro ta’siri va bir-birini boyitishi deb ataladigan muhim jarayonlarning jonli va amaliy zaminidir. Badiiy tarjima – eng ko‘p muammoli san’atlardan biri, bizning davrimizda ta’bir joiz bo‘lsa, ko‘p tarmoqli xo‘jalik: o‘zbek tilidan tarjima, Sharq tillaridan tarjima va Sharq tillariga

tarjima, biror til vositachiligidagi qilinadigan tarjima, asl nusxadan qilinadigan tarjima va h.k. bu tarmoqlardan har birining o‘ziga xos muammoli jihatlari mavjud. Sharq tilidan va Sharq tiliga tarjimalar yildan-yilga kengayib bormoqda, va buning natijasida badiiy tarjima masalasida yangidan yangi muammolar ko‘tarilmoqda. “Ilgari o‘zbek adabiyotining namunalari boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya’ni rus tili orqali amalga oshirilar edi. Bu borada qilingan katta-katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g‘arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish lozim. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san’atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarini tayyorlash imkoniyati bizda mavjud”. Hozirgi kunda mamlakatimizda turli oliy o‘quv yurtlarida sharq tillarini mukammal tarzda talaba yoshlarga o‘rgatilib kelinayotgani va tarjima kabi mashaqqatli ishga jalb etilishi yuqorida ko‘rsatilgan muhim masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, badiiy tarjima tarjimonning zimmasiga juda ko‘p murakkab va sharaflı vazifalarni yuklaydi. Tarjimon kamida ikki xalq adabiyoti, tarixi, madaniyati va ikki xalq hayotini mukammal bilishi bilan birga, kamida ikki tilni ham juda yaxshi o‘rgangan bo‘lishi kerak. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida malakali mutaxassislar tomonidan amalaga oshirilayotgan tarjimalar mana shu talablarga to‘laqonli javob bera oladi, hamda ular tomonidan o‘zbek adabiyoti durdonalarini sharq tillariga xususan koreys tiliga tarjima qilish ishlari samarali amalga oshirilmoqda. Jumladan o‘zbek xalqining sevimli shoiri, Vatan kuychisi Muhammad Yusufning tanlangan sherlari koreys tiliga tarjima qilingan. O‘zbek xalq ertaklaridan namunalar, xususan “Zumrad va Qimmat”, “Oltin kuz”, “Ur, to‘qmoq”, “Egri va To‘g‘ri”, “Susambil”, “Malikai Husnobod”, “Uchar gilam” va hokazo kabi ertaklar ham Toshkent Davlat Jahon Tillari Universiteti o‘qituvchisi Mahmakulova Yayra Qudratovna tomonidan koreys tiliga mahorat bilan o‘girilgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimovning asarlari jahoning ko‘pchilik mamlakatlarida tarjima qilinib, nashr etilgan. Shular jumlasidan Koreya Respublikasida ham I. Karimovning “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” kitobi koreys tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari tarjima qilinib, koreys tilida nashr etilishining o‘zi mustaqil O‘zbekiston davlatining Koreya hukumati, xalqi tomonidan tan olinishi, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy o‘zgarishlar Koreya xalqi uchun befarq emasligi, ular o‘rtasidagi do‘stlik abadiy ekanligini bildiradi.

Adabiy aloqalar badiiy tarjima, adabiy ta’sir, jonli muloqotlar, ijodiy hamkorlik, do’stona munosabatlar, ustoz-shogird an’analari o‘zanida shakllangan, - millatning ma’naviy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega jarayondir.

O‘zbek adabiyoti tarixining barcha davrlarida adabiy aloqalar maqsad va vazifalariga ko‘ra turli ko‘rinishlarda davom etib kelgan. Hozirgi paytda mazkur soha jahoniy miqyosda rivoj topib, uning yangi shakllari paydo bo‘ldi, jumladan, - ijodkorlarning badiiy tarjima vositasida jahon adabiyoti tajribalariga murojaati kuchaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Saydazimova U.T. XVII-XVIII asrlar koreys nasrining ma’naviy-estetik konsepsiyalari. Doktorlik dissertatsiyasi. -T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2018.
2. Saydazimova U., Ismatullayeva D. Koreys adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida. Toshkent 2021.
3. U. Saydazimova va boshqalar. Klassik koreys she’riyati antologiyasi: – Toshkent: “Istiqlol nashriyoti”, 2014
4. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Toshkent “Ma’naviyat” 2008.
5. Sun Don Gi. O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya munosabatlari: iqtisodiy, madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi va istiqbollari. Toshkent-2000.
6. novosti-uzbekistana.ru, 2017. 5 yanvar.